

---

## Viloyatda pensiya va nafaqalar summasi bugun joriy oy uchun to'liq moliyalashtirib berildi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-sonli qaroriga muvofiq, Pensiya jamg'armasiga pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona viloyat boshqarmasi, o'z navbatida tuman (shahar) bo'limlari tomonidan joriy oy uchun moliyalashtirishga taqdim etilgan talabnomalar umumiy hajmidan kelib chiqib, fuqarolar pensiya va nafaqalar summasi bugun 2018 yil 13 iyul kuni to'liq moliyalashtirib berildi. Bu haqda viloyat pensiya jamg'armasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Elyorbek Asronqulov viloyat hokimligi axborot xizmatiga ma'lumot berdi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, ushbu moliyalashtirish qonun xujjatlariga muvofiq, har bir oyning 20 sanasidan kechiktirmay amalga oshirilmoqda.

2018-07-13 17:17:09